

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 204 (993), 2023-yil 5-oktabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



DAVLATIMIZ RAHBARI KOREYANING “SK GROUP” KOMPANIYASI RAISINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-oktabr kuni Koreyaning yetakchi “SK Group” kompaniyasi raisi, Koreya Respublikasi Savdo-sanoat palatasi rahbari Che Txe Von boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Davlatimiz rahbari O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada izchil rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda “SK Group” kompaniyasi bilan yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish, xususan, Toshkent viloyatida mis folga ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish borasidagi istiqbolli loyihalarga alohida e‘tibor qaratildi. Yarimo‘tkazgichlar sanoatida muhandislik kadrlarini tayyorlash va ilmiy izlanishlar o‘tkazish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Koreya Savdo-sanoat palatasi ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini ustuvor tarmoqlardagi kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb qilishda faol ishtirok etishi muhimligi qayd etildi.

O‘ZA

KASB-HUNARGA O‘QITISH TIZIMI BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-oktabr kuni professional ta‘lim sifatini oshirish hamda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha yangi tashabbuslar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda professional ta‘lim alohida o‘rin tutadi. Xususan, taraqqiy etgan davlatlarda o‘quvchilarning 75 foizigacha kasbiy ta‘lim bilan qamrab olingan.

Mamlakatimizda ham bu soha mehnat bozori talablari asosida rivojlantirib kelinmoqda. O‘rta bo‘g‘in mutaxassislari, asosan, ikki yo‘nalishda — Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida kasb-hunar maktablari va texnikumlar hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga qarashli monomarkazlarda tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda 689 ta professional ta‘lim muassasasida 714 ta kasb va mutaxassislik hamda 20 ta “Ishga marhamat” monomarkazida aholiga 54 ta kasb va 6 ta xorijiy til o‘rgatilmog‘da.

O‘quvchilarga bir vaqtda ham o‘qish, ham ishlab daromad topish imkonini beradigan “dual ta‘lim” shakli joriy etildi. Bu tizim samarasida 2 ming korxonalar bilan birgalikda 6 ming yigit-qiz o‘qitilmog‘da. Shuningdek, yoshlarga 9-sinfdan keyin kasb-hunar maktabi, 11-sinf-dan esa kollej va texnikumda turli mutaxassisliklar o‘rgatilmog‘da.

Shu bilan birga, sohada muayyan bo‘shliqlar ham bor. Ayrim ta‘lim dasturlari hayot talabi bilan bog‘lanmagan. Professional ta‘lim maktab o‘quvchilari o‘ziga jalb qila olmayapti. Oqibatda mavjud quvvatlar to‘la ishlatilmayapti.

Monomarkazlar o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondira olmayapti. Bitiruvchilarga malaka razryadi berish joriy etilmagan sababli ular qo‘shimcha imtihon topshiryapti. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan professional ta‘lim o‘rtasida hamkorlik yo‘q. Chet tillarini o‘rgatish va tasdiqlovchi tillar berish bo‘yicha ishlar yetarli emas.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etib, kasbga o‘qitish sifatini oshirish

maqsadida tegishli vazirliklar tomonidan yangi takliflar ishlab chiqilgan. Taqdimotda mutasaddilar shu borada atroficha axborot berdi.

Mazkur takliflarda xorijiy ta‘lim dasturlarini joriy etish, bitiruvchilar malakasining ichki va tashqi bozorda tan olinishini ta‘minlash, o‘quvchilarni kollej va texnikumlarga kengroq jalb etish, monomarkazlarda kasbga o‘qitish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari nazarda tutilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu takliflarni takomillashtirish borasida qo‘shimcha topshiriqlar berdi. Aholi bandligi eng muhim masala ekani, yoshlarga kasb-hunarlarini tumanlar ixtisoslashuvidan hamda korxonalar ehtiyojidan kelib chiqib, aniq yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rgatish kerakligi ta‘kidlandi.

Kasblar va professional ta‘lim klassifikatorlarini bosqichma-bosqich yangilab, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, professional ta‘lim muassasalarini maktab va oliy o‘quv yurtlari bilan uzviy bog‘lash muhimligi aytili. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi barcha kasb-hunar ta‘limi muassasalarini yaxlit tizim sifatida muvofiqlashtirishi belgilandi.

Kelgusi o‘quv yilidan har bir viloyatda dunyo tan olgan dastur asosida kasb-hunarga o‘qitish yo‘liga qo‘yiladi. Ularning bitiruvchilari xalqaro malaka va xorijiy til sertifikatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, ilg‘or kasbiy ta‘lim va kasbga o‘qitish sifatini ta‘minlash mezonlari tatbiq etiladi.

Monomarkazlarda kasblar ish beruvchilarning buyurtmasi asosida o‘qitiladi, bu bitiruvchilarning ishga joylashishida muhim omil bo‘ladi.

Mutasaddilarga professional ta‘lim tizimini rivojlantirishning yilma-yil dasturini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN ROSSIYA FEDERATSIYASIDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 5-7-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Moskva shahrida ikki davlat yetakchilarining muzokaralari bo‘lib o‘tadi. Davlatimiz rahbari Rossiya Hukumati Raisi Mixail Mishustin bilan ham uchrashadi.

Bo‘lajak uchrashuvlar kun tartibidan ikki tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlash masalalari o‘rin olgan. Amaliy hamkorlikni,

eng avvalo, savdo va iqtisodiyot, investitsiya, migratsiya va gumanitar sohalarida kengaytirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti Tataristonga tashrif buyurib, respublika Raisi Rustam Minnixonov bilan muzokara o‘tkazishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

BIZ VA DUNYO

O‘zbekiston – Rossiya: STRATEGIK SHERIKLIKNING MUHIM BOSQICHI SARI SAMARALI QADAM

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-7-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ko‘p qirrali O‘zbekiston — Rossiya hamkorligi misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarildi. 2022-yil 15-sentabr kuni Samarqand shahrida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin O‘zbekiston hamda Rossiya o‘rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzoladilar. Hujjati imzolash marosimi Rossiya rahbarining rasmiy tashrifi doirasida Samarqand shahrida o‘tkazilgan samarali muzokaralar yakunlari bo‘yicha bo‘lib o‘tdi.

Samarqand deklaratsiyasi O‘zbekiston — Rossiya hamkorligi rivojida

yangi bosqich bo‘lib, o‘zaro aloqalarga, ayniqsa, yaqin va dinamik tus berdi. Hujjat siyosiy, savdo-iqtisodiy, energetika, transport, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari uchun Prezident Vladimir Putin tashrif chog‘ida Prezident Shavkat Mirziyoyevga Rossiyaning Aleksandr Nevskiy ordenini topshirdi.

▶ Davomi 2-betda

GLOBAL MUAMMOLAR VA JOZIBADOR YECHIMLAR

INSON KAPITALIGA BOG‘LANGAN UMID MO‘JIZALARI

Assambleyada so‘zlangan nutq taassuroti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSHga safari kun tartibi, ish soatlari tig‘iz va shu bilan birga, g‘oyatda qizg‘in bo‘ldi. Buni televizor tomosha qilib o‘tirgan har bir odam juda yaxshi sezdi. Ko‘pchilik va ayniqsa, qari-qartanglar: “Xudoyim o‘zi kuch-quvvat, tog‘day bardosh, o‘tkir aql-zakovat ato qilsin”, deb duolar qildi. Prezident ish hajmi va miqyosining bepoyonligidan cho‘chib o‘tirmay sharqona yeng shimarib, g‘ayrat-shijoat bilan ishga kirishdi. Soffdil insonga tabiat o‘zi beqiyos kuch-quvvat va ilhom ato etdi. Ajoyib uchrashuvlar, muloqotlar boshlandi. Assambleyada nutq vaqti ham tezda yetib keldi. Tig‘iz, tarang soatlardan mamlakatimiz uchun, xalqimiz uchun, jozibador Markaziy Osiyomiz uchun bugun va ayniqsa, kelajak hayot uchun suv va havoday zarur g‘oyalari, istiqbollar paydar-pay yetilib keldi.



Avvalo, BMT Bosh Assambleyasidagi nutq: u fayz-u shukuh topib olamga yoyildi.

Rahbarimizning esda qoladigan bu nutqi BMTda birinchi marotaba 2017-yilda so‘zlangan tarixiy nutqning uzviy davomi bo‘ldi. Ro‘yirost aytaylik, chunki

bundan olti yil oldin tilga olingan muammolar hal bo‘lish bosqichiga kirgan bo‘lsa-da, ammo hali yechilgan, nihoyasiga yetgan yoki hayot jabhalariida tatbiq etilgan emas.

▶ Davomi 2-betda

MUNOSABAT

O‘ZBEKISTON VA QATAR: IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY-MA‘RIFIY HAMKORLIKNING YANGI POG‘ONASI

Qatar Janubi-g‘arbiy Osiyodagi yarim orolda joylashgan kichik davlatlardan biri. Ma‘lumotlarga ko‘ra, uning aholisi 2022-yilda 13,2 foiz o‘sgan, ya‘ni futbol bo‘yicha jahon chempionati arafasida ko‘plab muxlis Qatarga ko‘chib o‘tganidan keyin aholi soni 3 millionga yaqinlashgan. Aslida, tub aholi 380 mingga yaqin bo‘lib, mamlakat nufusining aksariyat qismini mehnat muhojirlari (Eron, Pokiston, Hindiston hamda Afrikadan kelganlar) va boshqa xorijliklar tashkil qiladi.

Qatar iqtisodiyotining asosi neft qazib chiqarish va uni qayta ishlashdir. Shuningdek, eng ko‘p tabiiy gaz zaxirasiga ega davlatlar orasida uchinchi o‘rinni egalagan Qatar 104 ming dollarlik ko‘rsatkich bilan yalpi ichki mahsuloti aholi jon boshiga eng yuqori mamlakatlar qatorida turadi. Bu mamlakatda yalpi ichki mahsulot yiliga 274 milliard dollarni tashkil etadi. Biroq Qatarning kuch-qudratini faqat neft va gaz zaxirasiga boy ekani belgilab bermoqda. U arab-musulmon dunyosida geosiyosiy tafakkuriga ega davlat sanaladi. Bu davlat arab dunyosidagi eng qudratli geosiyosiy aktorlardan biri.

Ekspertlar fikricha, Qatar globalist davlat bo‘lib, globallashtirilgan dunyoda funda-

mental o‘zliklar, jumladan, islomiy, arabiy o‘zlik bilan erkinlikni, demokratiyani va siyosiy faollikni qarama-qarshi qo‘ymaydigan, aksincha, ularni uyg‘unlashtiradigan mamlakatdir. Birgina futbol bo‘yicha jahon chempionatining Qatarda o‘tkazilgan ham bundan dalolat beradi.

Tarixga nazar

Qatar O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan olgan bo‘lib, ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqa o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonoma 1997-yil 27-noyabr kuni Turkiyada imzolangan.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning Qatar bilan munosabati sezilarli darajada rivojlanib,

yangi bosqichga chiqmoqda. 2022-yilda 4,8 million dollarni tashkil etgan o‘zaro savdo hajmi 2023-yilning 8 oyida 4,5 million dollarga yetdi.

2010-yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qatarda bo‘lib, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarga ilk qadam qo‘ygan edi.

2018-yil 16-18-iyul kunlari Qatar Tashqi ishlar vazirligi Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik departamenti boshlig‘i Xolid Ibrohim Al-Hamar boshchiligidagi delegatsiyaning yurtimizga tashrifi doirasida tashqi ishlar, investitsiya, turizm, savdo-sanoat, transport masalalari uchun mas‘ul vazirlik, idoralarda muzokaralar o‘tkazildi.

2019-yil iyunda Dushanbeda, 2022-yil oktabrda Ostonada Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning V va VI sammitlari doirasida, 2022-yil fevralda Pekinda qishki Olimpiya o‘yinlari ochilishi marosimida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad OI Soiniy o‘rtasida samimiy muloqotlar bo‘lib o‘tgan.

▶ Davomi 3-betda

GLOBAL MUAMMOLAR VA JOZIBADOR YECHIMLAR

INSON KAPITALIGA BOG'LANGAN UMID MO'JIZALARI

Assambleyada so'zlangan nutq taassuroti



Ibrohim G'AFUROV, O'zbekiston Qahramoni

Boshlanishi 1-betda

Aksincha, olti-yetti yil ichida ular yoni-ga zamon va murakkab siyosiy, iqtisodiy, ekologik jarayonlar natijasida boshqa, yangidan-yangi, bir talay dolzarb muammolar shitob bilan qo'shilgan: terrorizm va ekstremizm, bosqinchiliklar barham topgan emas, suv tanqisligi, sayyora-ning iqlim sharoitlari, Yer yuzi miqyosida haroratning sezilarli darajada ko'taril-gani, yer qutblarida, tog' tizmalarining cho'qqilarida muzliklarning beomon erib borayotgani, xatarli og'ir kasalliklarning davosi topilmayotgani, gijohvandlik mod-dalari yer yuziga to'zgiyotgani... Xalqaro miqyoslarda tartibga soluvchi qonunlarga yengil-yelpi qaralayotgani, imkon topilgan-da ular toptab mensimay o'tilayotgani va hokazo-hokazo murakkab muammolar

Yechim topmay davom etib kelayotganligi, og'ir tus olayotganiga dalolatdir. Prezident o'z nutqining boshidayoq bularga o'z jiddiy munosabatini bildirib o'tdi. Ta'bir joiz bo'lsa, ularni xalqaro nufuzli Assambleyaning "yodiga soldi". Afg'on muammosi yaqin ellik yillardan beri xalqaro minbarlardan tilga olinadi. Lekin Hindiqush hali ham zarracha joyidan jilgan emas. Prezidentimiz Afg'onistonni bugun ham xalqaro va mintaqaviy miqyoslarda faol bo'lish-ga, muammolar yechimiga real bosh qo'shishga, borayotgan juda katta barqaror taraqqiyot jarayonlariga jon-dildan qo'shilishga da'vat etdi. Kasal tuzalgisi kel-sa, tabib ham astoydil yetib keladi, zero, bu hikmat hamon kun tartibidan tushgan emas. Quruq chaqiriqlar, muammolari quruq tilga olib o'tish, qayd etish bilan endi ish hech joyidan qo'zg'almasligi allaqachon ma'lum bo'lgan. Qars hamon ikki qo'ldan chiqadi. Aytildi-yu, qilinmaydigan — ado etilmaydigan, tashlab qo'yiladigan muammolar haqida eslayapmiz-da, nutq da'vatlaridan, konseptual yo'nalishlardan, modal ahamiyatga ega takliflardan kelib chiqib...

Afg'oniston qadim-qadimdan Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Pokiston, Hindiston, Janub mamlakatlari taqdiri, hayoti, hayo-tingi sifati bilan chambarchas bog'lanib ketgan-da, axir, Prezidentimizning bu boradagi jonkuyarligi jahon afkor omma-siga, jahon siyosatiga tushunarli va ya-qin. Qo'shning tinch — sen tinch. Ammo turli maqsadlarda "tinch o'tirmaydigan" qo'shnilar ham yo'q emas-da, kezi kelsa o'z manfaati yo'lida boshqalarni chalg'itib o'tiradigan. Bundan ham ko'z yumib bo'l-maydi, doim hisobga olmay iloji yo'q. O'z qarashlarini bildirmay, yechimlar taklif qilmay sira ilojing yo'q.

Shularning barchasi barobarida O'z-bekiston Prezidentining nutqida butun global dunyo aks sado berdi. Bu nutq bu-gungi mashaqqatli dunyoga, dunyoning o'zi esa davlatimiz rahbarining zamonaviy, ilmiy-amaliy, nazariy qarashlariga hamohanglik kasb etdi. Bu ajoyib hamohang-lik haqida urg'u berib, juda ta'kidlab aytishimiz kerak. Chunki bu hamohanglik Assambleya minbaridan taralgan dolzarb g'oyalarning yer yuzi miqyoslarida keng yoyilishiga xizmat qiladi. Hamohangli-

Osiyoning hozirdagi va uzoq-yaqin ke-lajadagi eng asosiy vazifasi. Biz global aks sado deganda shularni ham nazarda tutmoqdami. Ta'sirchanlikka erishgan so'z, albatta, hamohanglik topadi. Biz nutqdagi barcha pozitiv fikr yo'nalishlari-ni shunday ijtimoiy-siyosiy ta'sirchanlikka erishgan so'z — ta'sirchan fikr oqimi deb qaraymiz. Nyu-Yorkdan so'ng kuni kecha Germaniyada bo'lgan uchrashuvlar, mu-loqotlar yirik anjumanlarda ham to'la o'z ifodasini topdi. Davlatimiz rahbarining fikrlari, qarashlari, xalqaro darajadagi bu-guni tendensiyalarga hamohang va shu tendensiyalarni ta'bir joiz bo'lsa, shakl-lantirayotgan siyosiy kuchlardan, hosil-lardan biri.

Assambleya qatnashchilari davlatimiz rahbarining nutqini kamoli e'tibor berib tingladi. Xayrixoh bo'lib yaxshi kutib oldi. Bu ham hamohanglikning natijasi. Ame-rika Prezidenti Jozef Bayden o'zbekis-tonlik hamkasbining nutqidan bag'oyat mamnunlik izhor etdi. Nutqda bayon etil-gan fikrlarni qo'lladi. Nutq ular orasida in-soniy xolislik, samimiyat, ochiqlik uyg'o-ti. Ularning uchrashuvlari ham shunday samimiyat, fikrdoshlik, o'zaro ishonchga to'liq bo'ldi. O'zbekiston — Amerika strategik sherikligi tomon yana dadil mustahkam qadamlar tashlandi. O'zaro hamjihatlik kayfiyatlarini butun uchrashuv davomida ta'bir joiz bo'lsa, qulf urib turdi. Hamjihatlik, hamohanglik naqadar olija-nob fazilatlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarda! Bu kayfiyat, qarang, ko'p o'tmay Prezidentimizning vatan-doshlar va "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatalari bilan uchrashuvida shun-day hayratomuz tarzda yorqin namoyon bo'ldi-qo'ldi. Yaxshi niyatlar yaxshi va ulug' samaralar bermoqda.

Shavkat Mirziyoyevning nutqi BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tomoni-dan ham yuqori baholandi. Guterrish O'zbekiston Prezidentidan o'z xayri-xohligi va hamfikrligini yashirib o'tirmadi. O'zbekiston bilan bir qator dolzarb xalqaro masalalarda, ularni ijobiy hal etishning yo'l-yo'riqlarini axtarib topishda birdam-ligi, bir yoqadan bosh chiqarayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Davlatimiz rahbarining Assambleya doirasida yana qator boshqa dunyo mam-lakatlari rahbarlari bilan uchrashuvlari-da ham ochiq konstruktiv munosabatlari ustun bo'ldi. Foydali fikr almashuvlarda qimmatli rejarlar tilga olindi. Ular Shavkat

Mirziyoyevning nutqidan olgan taassurot-larini bayon qilar ekan, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo, iqtisodiy, madaniy alo-qalarni rivojlantirish, mustahkamlash istak-xohishlarini bildirdi.

Nutqning global aks sadosi yana shunda ham aniq-ravshan namoyon bo'ldiki, dunyo ishlarida bugun O'zbekis-ton va u mansub Markaziy Osiyo mam-lakatlari o'z o'rnini, o'z ovozi, o'z ta'sir kuchi, obro'-e'tibori, nufuzi, ahamiyatiga ega bo'lib bormoqda. Markaziy Osiyoda yashovchi, ilgari mustamlaka zulmi va is-tibdodni boshdan kechirgan, hatto "paxta quli" bo'lib qolgan xalqlarni endi jon qu-log'i bilan tinglamogda, taraqqiyot yo'l-idan bir safda bormogda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining amalga kirishi bu xalqaro safdagi o'rnimiz va rolimizni yanada ayonroq ifodalamoqda. Va bular hammasi Prezidentimiz nutqining global miqyosdagi aks sadosidan darak beradi. U Janubiy Koreyada ham, Yaponiyada ham, Italiya, Germaniyada ham tushu-narli bo'lmoqda. Turli davlatlarning inson-parvarlik mezonlari va xalqaro huquqlar asosida yaqinlashuviga xizmat qilayotir.

Shu bilan birga, Amerikaning juda yirik kompaniyalari, korporatsiyalari, bir qator nufuzli xalqaro iqtisodiy, moliyaviy tashkilotlar (Jahon savdo tashkiloti, Jahon valyuta fondi, shuningdek, Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishel, Ame-rika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm singari yirik arboblari bilan uchrashuvlari) rahbarlari bilan muloqot-larda ham o'zaro foydali takliflar, quvonsa arziyidigan tashabbuslar o'rta qo'yildi.

Axir Prezidentimiz nutqida asosiy gap inson kapitali, umumiy xavfsizlik, eng ilg'or texnologiyalar va rang-barang innovatsiyalar rivoji, sifatlari ta'lim, dinlararo bag'rikenglik, murosas-yu ma-dora, terrorizm va kambag'allikka bar-ham berish, suv va havoni toza tutish, tejjash, gender tengligi, yoshlar siyo-sati, ilm-fan ravnaqi haqida boradi-yu, dunyo mamlakatlari va xalqlari bularga beparvo qaraydimi, yurak harorati bilan qabul qilmaydimi, hamfikr bo'lmaydimi? "Sase"ga o'xshagan ajoyib brendlar-ni yaratgan CNH rahbari janob Stiv Naderini yangi maqomdagi o'ta kuchli traktor, paxta terish kombaynlarini bir-galikda ishlab chiqarish haqida ajoyib takliflar bilan chiqadi-yu, O'zbekiston Prezidenti ularni quchoq ochib kutib ol-maydimi, xayrixohlik izhor qilmaydimi?

Bular O'zbekistonimizga axir suv bilan havodek zarur-ku!

Vaqt ziq! Bizga yuqori darajali tex-nologiyalar kerak! Suv tozalovchilar, te-joychilar, oziq-ovqatlar sifatini kafolati ta'minlovchilar, to'liq og'ishmay nazorat qiluvchilar, onkologik, urologik kasalliklar-ni tag-tugi bilan davolovchilar, yashash, o'qitishning eng a'lo texnologiyalari ke-rak! Prezidentimizning gapi: Biz bu soha-larda har qanday hamkorlikka tayyormiz! Halvo degan bilan og'iz chuchimaydi. Bizga halvoning sifati ma'qul!

Davlatimiz rahbarining nutqi Amerika-da yashab ishlayotgan vatandoshlarimiz, "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatalari-ni ham tamomila maftun qilib qo'ydi. Ular o'ta zamonaviy tarzda fikrlashar, Shavkat Mirziyoyevga o'zlarining ilmiy kitoblarini sovg'a qilishar, kelajakni ko'zlab qimmat-li taklif-mulohazalar aytishardi. Ularni ko'rgan va tinglaganda odamning zavqi kelmaydimi!

"El-yurt umidi" jamg'armasi tuzilgan-ga bor-yo'gi besh yil bo'libdi. Lekin besh yilda inson kapitalida shunchalar fantastik o'zgarishlar! Odam bexos lol bo'lib qoladi. Kelajakni oldindan ko'rish, aniq hisob-kitob qilish mana shunchalar qim-matga ega. Inson kapitali kushoyishda! Bu inson kapitaliga bog'langan umidning mo'jizalari!

Yoshlar munosib o'qish, munosib tar-biya, munosib sharoit, munosib ta'minot tufayli o'sar, chinakam aql kashfiyotiga aylanar ekan.

Bular Behbudiy, Qodiriy, Cho'lpon-ning orzulari ushlagani! Shunday ulug' zamonalarni ham ko'ryapmiz. Ong shun-chalarni ma'sum boladek o'suvchan bir ho-disa ekan-da, bu shoyon taqdirat!

Ey, Massachusetts, Boston, Kolumbi-ya singari ulug' universitetlarda o'qiyot-gan, dars berayotgan ukam, singlim, ne-varam, evaralarim, taqdiringiz bundan buyon Quyoshdek bo'lsin, ilm nurini olib fayziyo bo'lgaysiz! Aziza Shonazarova, Kolumbiya universitetining professori, sizga, qizim, juda havasim keldi. "Do'st-lik" ordeni bilan taqdirlanib, muborak bo'lsin, Niderlandiyada birinchi kitobi-gizni chiqarib, ajoyib. O'zbekiston siz olim, adibalarini jondan sevadi, jondan kutadi, qarshilaydi. Qorasaroyda o'qib Kolumbiyada professorlik ilmiy darajasini qozonib, xayriyo yo'llaringiz bardavom bo'lsin.

Shuhrat Tog'ayev Kolumbiya universi-teti doktoranti Amerika sizlarni o'z bag'ri-ga olib ta'lim bermogda. Umid qilamiz bunga munosib insonlar bo'lasiz. 2000 qorako'z olim-professor! Qani aytinch-chi, endi O'zbekiston yashnamay kim yash-nasin? Tiklanib kelayotgan O'zbekiston, bir yoqadan bosh chiqarayotgan Marka-ziy Osiyo jozibador, go'zal bo'lmay, kim jozibador, go'zal bo'lsin. Ay, g'ayrati, ta-lanti baland yorqin navqironlarim! Nutqlar siz uchun aytilmogda. Yuraklar siz uchun jo'sh urmogda. Umidlar siz uchun ochil-mogda. O'zbekiston siz bilan o'z yorqin istiqbolini qozonadi. U haqiqiy g'alaba bo'ladi!

“VAQT ZIQ! BIZGA YUQORI DARAJALI TEXNOLOGIYALAR KERAK! SUV TOZALOVCHILAR, TEJOVCHILAR, OZIQ-OVQATLAR SIFATINI KAFOLATLI TA'MINLOVCHILAR, TO'LIQ OG'ISHMAY NAZORAT QILUVCHILAR, ONKOLOGIK, UROLOGIK KASALLIKLARNI TAG-TUGI BILAN DAVALOVCHILAR, YASHASH, O'QITISHNING ENG A'LO TEXNOLOGIYALARI KERAK! PREZIDENTIMIZNING GAPI: BIZ BU SOHALARDA HAR QANDAY HAMKORLIKKA TAYYORMIZ! HALVO DEGAN BILAN OG'IZ CHUCHIMAYDI. BIZGA HALVONING SIFATI MA'QUL!

kning qimmatli O'zbekistonga yog'iladigan xalqaro miqyosdagi investitsiyalar izchil ko'payib, kuchayib borishi bilan belgilanadi. Hamohanglikning ahamiyati bugungi dunyoga har tomondan yaqin va tushunarli bo'lishimizni bildiradi. Shavkat Mirziyoyev o'z nutqi va serqirra faoliyatida erishayotgan shu hamohanglikning boshqa yana ko'p jozibador tomonlari mavjud. Sodda qilib aytganda, hamohanglikda gap ko'p. Bu Prezidentimiz nutqining samaradorligi: u misoli ohanrabodiy o'ziga tortmogda. Hamohanglik topish Markaziy



BIZ VA DUNYO

Boshlanishi 1-betda

Qayd etish joizki, Aleksandr Nevskiy ordeni bilan Rossiya bilan ko'p tomon-la-ma hamkorlikni rivojlantirish va uning ij-timoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'maklash-ishda xizmat ko'rsatgan atoqli xorijiy si-yosat va jamoat arboblari mukofotlanadi.

Rasmiy Toshkent va Moskva Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsiz-likni ta'minlashdan manfaatdor hamda global muammolarni hal qilish, shuning-dek, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha bir-birining tashab-buslarini qo'llab-quvvatlaydi.

Ayni paytda ikki mamlakat parlament-lari va hududlari o'rtasida faol hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Tomonlar barcha dara-jalarda jadal va keng ko'lamli muloqot olib bormogda. Xususan, o'zaro hamkor-likning uch bosqichli noyob tizimi: Bosh vazirlar darajasidagi qo'shma komissiya, Hukumatlararo komissiya va uning quyi qo'mitalari shakllantirildi. Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o'rtasida tizimli asosda samarali muloqot rivojlanib bor-mogda.

Parlamentlararo hamkorlik faol rivoj topyapti. O'zbekiston Oliy Majlis Senati va Rossiya Federatsiyasi Federal Majli-si Federatsiya Kengashi o'rtasida ham-korlik bo'yicha komissiya hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Federal Majlisning Davlat dumasi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruh tuzildi.

Qayd etish joizki, O'zbekiston va Ros-siya o'rtasidagi qonunchilik bazasi 350 dan ortiq hujjatlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston va Rossiya BMT, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa global hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasida yaqindan hamkorlik qiladi, bir-birining tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlaydi. BMT platformasida

O'zbekiston – Rossiya: STRATEGIK SHERIKLIKNING MUHIM BOSQICHI SARI SAMARALI QADAM

o'zaro hamkorlik Bosh Assambleya kun tartibidagi asosiy masalalar va tomonlar-ni ilgari surgan tashabbuslari bo'yicha pozitsiyalarni o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi.

Rossiya tomoni BMTga a'zo davlat-lar tomonidan O'zbekistonning Marka-ziy Osiyodagi yadro qurolidan xoli zona (MOYQXZ) to'g'risidagi Shartnoma bo'y-icha pozitsiyasini keng qo'llab-quvvat-lashga ko'maklashdi, MOYQXZ bo'yicha Bosh Assambleyaning rezolyutsiyalarini qo'llab-quvvatlashda izchil ishtirok etdi (ikkinchisi Bosh Assambleyaning 75-ses-siyasida ovozga qo'yilmasdan qabul qilindi). Bundan tashqari, Rossiya Shart-nomaga xavfsizlik kafolatlari to'g'risidagi Protokolni imzoladi va ratifikatsiya qildi.

Rossiya, shuningdek, O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" (2018), "Barqaror turizm va Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyot" (2019), "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini deb e'lon qilish" (2021), "Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligi" (2022), "Barqaror rivojlanish maqsadlari-ga erishishni jadallashtirishda parlament-lar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi (2022) rezolyutsiyalarni qo'llab-quvvatlagi va hammualliflik qildi.

O'zbekiston — Rossiya turli masa-lalar bo'yicha ikki va ko'p tomonlama formatdagi hamkorlikning muhim hamda



dolzarb jihatlari bo'yicha ikki davlat tash-qiq siyosat idoralari o'rtasida muntazam maslahatlashuvlar o'tkazilmoqda.

O'zbekistonning 2021-2022-yillarda SHHTga raisligi davrida Rossiya tomoni o'zbek tomonining deyarli barcha tashab-buslarini, xususan, transport aloqasi, turizm, "aqli" qishloq xo'jaligi, raqam-li savodxonlik, telemeditsina, SHHTda mintaqacha ichidagi savdoni rivojlantirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi va boshqa sohalarida hujjatlar loyihalari ishlab chiqish bo'yicha qo'llab-quvvatlagi. Rossiya tomonining qo'llab-quvvat-lashi SHHTning Samarqand sammiti yakunlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, natija-da tashkilot faoliyatining turli yo'nalishlari

bo'yicha rekord darajadagi 44 ta hujjat qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'z-aro manfaatlari savdo-iqtisodiy aloqalar faol kengaymogda. Birgalikdagi sa'y-harakat-lar natijasida o'tgan yil yakuni va joriy yilning o'tgan yetti oyida o'zaro tovar ayirboshlash hajmining o'sishi 20 foizdan oshdi. Shu bilan birga, o'zaro tovar ayir-boshlash tuzilmasi bugungi kunda 70 foizni yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar tashkil etadi. 2022-yilda O'z-bekistonda Rossiya kapitali ishtirokida 967 ta korxonalar tashkil etilgan.

Sanoat kooperatsiyasi jadal rivoj-lanmogda. So'nggi yillarda tog'-kon va metallurgiya, yoqilg'i-energetika,

kimyo, qishloq xo'jaligi, mashinasoz-lik, to'qimachilik va boshqa sohalarida 100 dan ortiq qo'shma loyihalar amalga oshirildi.

2022-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston — Rossiya sammiti yakun-lariga ko'ra, mashinasozlik, kimyo, neft-kimyo va geologiya sohalarida umumiy qiymati 4,6 milliard dollarlik yangi inves-titsiya kelishuvlari to'plami imzolangan edi.

Sanoat-texnologik sheriklikni, birinchi navbatda, elektronika, farmatsevtika, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish bo'yicha qo'shma Kompleks chora-tadbirlar rejasi qabul qilish uchun ishlab chiqilmogda.

Ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish-da bevosita hududlararo aloqalar muhim o'rinni tutadi. Birgina joriy yilning birinchi yarmida ikki mamlakat mintaqaviy ye-takchilarining 50 ga yaqin o'zaro tashrifi amalga oshirildi.

2018-yilning 19-oktabr kuni Toshkent shahrida birinchi "O'zbekiston — Ros-siya" mintaqalararo forumi bo'lib o't-di. Prezident Vladimir Putinning davlat tashrifi va Mintaqalararo forum yakunlari bo'yicha 136 ta investitsiya loyihasinu amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

2021-yil 17-noyabr kuni Moskvada ik-kinchi forum bo'lib o'tdi. Uning yakunlari bo'yicha jami 9 milliard dollarlik 600 ga

yaqin ikki tomonlama shartnomalar, jum-ladan, 7,4 milliard dollarlik 141 ta investit-siya loyihasi va 1,6 milliard dollarlik 455 ta eksport shartnomasi tuzildi.

4-oktabr kuni Qozon shahrida bo'lib o'tgan uchinchi forumda ham ikki tomon-lama shartnomalarning muhim paketi imzolangan.

Boy va rang-barang madaniy-gumanitar hamkorlik tahsinga loyiq. O'zbekiston bugungi kunda Rossiya universitetlar-i-ni xorijiy filiallari soni bo'yicha yetakchi hisoblanadi. So'nggi to'rt yil ichida mam-lakatimizda Rossiyaning 11 ta yetakchi universiteti filiallari ochildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Rossiya oliy ta'lim muas-sasalarining jami 14 ta filiali bor.

Sayyohlar almashinuvi jadal oshib bormogda. Bu yil O'zbekistonga kelgan rossiyalik sayyohlar soni pandemiyadan oldingi ko'rsatkichlardan oshib ketdi.

Sog'liqni saqlash sohasi vakillari, madaniyat va san'at namoyandalari-ni o'zaro tashrifi faol qo'llab-quvvatlan-mogda. Ikki davlat teatrlari gastrollari, madaniyat kunlari o'zaro asosda tashkil etilayotir. O'zbekistonda bu uchun o'tayot-gan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, Toshkent xalqaro kinofestivali va boshqa madaniy tadbirlarda Rossi-yadan ijodiy guruhlar muntazam qat-nashyapti.

Muxtasar aytganda, tomonlar strate-gik sheriklik va ittifoqchilik munosabatta-rini yanada mustahkamlashga sodiqdirlar va mamlakatimiz rahbarining Rossiya Federatsiyasiga bo'lajak rasmiy tashri-fi ilgari erishilgan kelishuvlarini amalga oshirishga, xalqaromiz manfaati uchun uzoq muddatli va ko'p qirrali O'zbekiston — Rossiya aloqalarini izchil mustahkam-lashga xizmat qiladi.

MUNOSABAT



O'ZBEKISTON VA QATAR:

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY-MA'RIFIY HAMKORLIKNING

YANGI POG'ONASI



Go'zal SA'DIYEVA, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Davlatimiz rahbarining Qatar tashrifi arafasida Dohada ham O'zbekiston elchixonasi ochildi, uning faoliyati samarali sheriklikni faol rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Iqtisodiy munosabatlar

2023-yil 5-6-iyun kunlari Qatar Amiri O'zbekistonga tashrif bilan kelgan chog'ida Shavkat Mirziyoyev va Tamim bin Hamad Ol Soniy o'rtasida bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar tarixiy ahamiyat kasb etib, ikki tomonlama munosabatlar sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqildi.

Samarqandda O'zbekiston va Qatar aloqalariga doir 15 ta hujjat qabul qilindi. Shuningdek, energetika, neft-kimyoy, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va turizm yo'nalishlarida sanoat kooperatsiyasini o'rnatish va boshqa sohalarida amaliy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan umumiy qiymati 10 milliard dollarlik investitsiya bitimlari, savdo shartnomalari imzolandi. Oxirgi 7 yil davomida ikki hukumat turli vazirlik, idoralari vakillarining ko'plab

Ikki mamlakat media va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi aloqalar ko'lami ham tobora kengaymoqda. Masalan, dunyoda mashhur "Al-Jazeera" media korporatsiyasi bilan muntazam hamkorlik qilinmoqda. "Al-Jazeera" nafaqat arab-musulmon dunyosida, balki global axborot maydonida ham katta mavqega ega, o'ziga xos yangi siyosiy ob-havo olib kira oladigan yirik ommaviy axborot vositasidir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsad va vazifalariga hamohang bo'lgan "Nigoh 2030" davlat dasturiga yuqori baho berildi. "Nigoh 2030" yirik iqtisodiy islohotlar dasturi hisoblanadi. U mamlakatni an'anaviy iqtisodiy tizimdan rivojlangan, barqaror, kuchli va xalqaro miqyosda raqobatbardosh iqtisodiy tizimga ega davlatga aylantirish uchun joriy qilingan dasturdur.

Shuningdek, "Nigoh 2030" Qatarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va aholi uchun yuqori turmush darajasini ta'minlashga qodir rivojlangan jamiyatga aylinishini ta'minlovchi dastur hisoblanadi. Ush-

O'ZBEKISTON QATARING ILMIIY VA TA'LIM MUASSASALARI BILAN HAMKORLIKNI CHUQURLASHTIRISH, BIOTEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT, "YASHIL" ENERGETIKA BORASIDA QO'SHMA TADQIQOTLAR O'TKAZISHDAN MANFAATDOR EKANI TA'KIDLANDI. UCHRASHUVDA DOHA O'ZBEKISTON MADANIYATI VA TURIZM HAFTALIGINI O'TKAZISHGA KELISHIB OLINDI.

Boshlanishi 1-betda

2021-yil 6-8-aprel kunlari esa Qatar fuqarolik aviatsiyasi va "Qatar Airways" kompaniyasi vakillaridan iborat delegatsiyaning poytaxtimizga tashrifi davomida ikki davlat hukumatlari o'rtasida Havo qatnovi to'g'risidagi bitimni imzolashga tayyorlash hamda Doha — Toshkent — Doha yo'nalishi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri havo qatnovini yo'lga qo'yish masalasi muhokama qilindi.

O'sha yili noyabr oyida bo'lib o'tgan tender natijasiga ko'ra, Qatarning "Nebras Power" kompaniyasi, Fransiyaning EDF va Yaponiyaning "Sojitz Corporation" shirkatlari bilan birga tuzilgan konsorsium asosida Sirdaryoda issiqlik elektr stansiyasi qurilishi loyihasi amalga oshirilmog'da. Quvvati 1600 MVt bo'lgan mazkur korxonaga jami 1,2 milliard dollar in-



2022-YIL 24-SENTABR-5-OKTABR KUNLARI DOHA SHAHRIDA O'ZBEKISTON MADANIYAT KUNLARI DOIRASIDA DAVLAT SIMFONIK ORKESTRI KONSERTI, "HUNARMAND" UYUSHMASI VAKILLARI MAHSULOTLARI KO'RGAZMASI NAMOIYISH ETILDI, O'ZBEKISTONDAGI ISLON SIVILIZATSIYASI MARKAZI VA QATAR MILLIY KUTUBXONASI O'RTASIDA HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI.

vestitsiya kiritilishi va 2024-yili foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

2022-yil 24-26-mart kunlari bo'lib o'tgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida "Nebras Power" va O'zbekiston hukumati o'rtasida elektr energiyasi sotib olish to'g'risida bitim imzolandi.

2023-yil 1-2-oktabr kunlari Prezidentimiz davlat tashrifi bilan Qatar davlatida bo'ldi. O'zbekiston rahbarining bu tashrifi Samarqanddagi muzokaralarning mantiqiy davomi sifatida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq o'rtasida yangi ko'priklarni qurishga qo'shgan katta hissa qo'shadi.

Elchixonalar ochilishi

Qatar bilan O'zbekiston 2023-yilga qadar o'zaro elchixonaga ega bo'lmagan. 2023-yil aprelda Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi tayinlangan elchilardan ishonch yoriqlarini qabul qilib oldi, ular orasida Qatar elchisi ham bor edi. 2023-yil 7-mayda Toshkentda Qatar davlati elchixonasi rasman ochildi.

Shu paytgacha qadar O'zbekiston — Qatar munosabatlari Moskvadagi elchixonaga orqali muvofiqlashtirib kelingan edi. Endi o'zaro munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu, albatta, O'zbekiston uchun, mamlakatimizning mintaqadagi va dunyo hamjamiyati nuqtayi nazaridagi geosiyosiy mavqei uchun katta yutuq hisoblanadi.

uchrashuvlari tashkil etildi. O'zaro muloqotlarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi.

Joriy yil 1-2-oktabr kunlari Qatar davlat tashrifi chog'ida Prezidentimiz bilan Qatar Amiri o'rtasida ko'p tomonlama muzokaralar o'tkazildi. Unda o'zaro hamkorlikni yanada yuqori, strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga qat'iy intilish bildirildi.

Shavkat Mirziyoyev "EKSPO Doha — 2023" jahon ko'rgazmasi ochilishida qatnashdi va boshqa taklif etilgan davlat va hukumat yetakchilari bilan birgalikda ko'rgazmani ko'zdan kechirdi. Muzokaralar yakunida salmoqli hujjatlar to'plami imzolandi.

Tashrif chog'ida davlatimiz rahbari Qatarning yirik investorlari bilan ham uchrashdi. Ushbu muzokaralar Qatarning yirik kompaniyalari ishtirokida O'zbekistonda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi delegatsiyasining 2017-yil oktabr oyida Dohaga tashrifi davomida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Koronavirus pandemiyasi davrida Qatarning Josim va Hamad ibn Josim xayriya jamg'armasi mamlakatimizning "Mehrshafqat va salomatlik" fondiga, Qatar xayriya jamg'armasi esa Respublika shohilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qoraqalpog'iston bo'limiga 200 ming dollardan ziyod beg'araz moliyaviy yordam ajratdi.

2022-yil 24-sentabr-5-oktabr kunlari Doha shahrida O'zbekiston madaniyat kunlari doirasida Davlat simfonik orkestri konserti, "Hunarmand" uyushmasi vakillari mahsulotlari ko'rgazmasi namoyish etildi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Qatar milliy kutubxonasi o'rtasida hamkorlik memorandum imzolandi.

Dunyo hamjamiyati, xalqaro munosabatlar sohasidagi ekspertlar O'zbekiston Prezidentining Qatariga bu galgi davlat tashrifini katta qiziqish bilan kuzatib bordi.

Pokistonning "Yagona kelajakka ega jamiyat" tahliliy markazi ijrochi direktori, xalqaro munosabatlar bo'yicha ekspert Xolid Taymur Akram o'z maqolasida "O'zbekiston rahbarining Qatariga tashrifi tarixiy ahamiyatga ega. Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoda to'plangan barcha muammoli masalalarni hal eta oladigan, mintaqadavrlarini umumiy kelajak qurish yo'lida birlashtiradigan yetuk rahbarga aylandi. Endi u Yaqin Sharqni "kashf etish" uchun ketdi", deya fikr bildirdi.

Darhaqiqat, bugun Qatar va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar o'zgacha ahamiyat kasb etmoqda. Qatar bilan do'stona va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilmoqda.

Prezidentimizning Qatariga tashrifi doirasida O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va Qatar Savdo-sanoat palatasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini va ishbiarmonlar kengashini tuzish to'g'risidagi bitim imzolandi. Shuningdek, tashrif chog'ida Qatarida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan hamda

bu milliy dastur Qatar oldida turgan beshta asosiy muammoni hal qilishga qaratilgan. Jumladan, modernizatsiya va an'analarni saqlash, hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlari, boshqariladigan o'sish va nazoratsiz kengayish, chet ellik ishchi kuchi hajmi va sifati hamda tanlangan rivojlanish yo'li, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy yuksalish va atrof-muhitni boshqarish.

Milliy dastur to'rtta o'zaro bog'liq ustun orqali rivojlanishni nazarda tutadi. Bular — inson resurslari, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot va ekologik rivojlanish.

Istiqbolli yo'nalishlar

O'zbekiston va Qatar o'zaro savdo aylanmasini bir necha barobar oshirishni, an'anaviy va "yashil" energetika, neft-kimyoy, metallni chuqur qayta ishlash, qurilish, turizm, moliya va boshqa sohalarida qo'shma investitsiya loyihalarini bajarishga tayyor ekanini bildirdi.

Shuningdek, ishbiarmonlik aloqalarini faollashtirish uchun 2024-yil yanvar oyida Dohada hukumatlararo qo'shma komissiya, ishbiarmonlar kengashining birinchi yig'ilishlari va biznes-forum o'tkazish taklif qilindi. Bundan tashqari, ikki mamlakat o'rtasidagi madaniyat, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvni kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozimligi qayd etildi.

O'zbekiston Qatarning ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, biotexnologiyalar va sun'iy intellekt, "yashil" energetika borasida qo'shma tadqiqotlar o'tkazishdan manfaatdor ekanini ta'kidlandi. Uchrashuvda Dohada O'zbekiston madaniyati va turizm haftaligini o'tkazishga kelishib olindi.

Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ham muhokama qilindi. Transfg'on temir yo'lini qurish loyihasini amaliy jihatdan ilgari surish masalalarini qo'llab-quvvatlash muhim va dolzarb ekanini qayd etildi. Tomonlar bugungi holatdan kelib chiqib, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni davom ettirish muhimligi haqida yakdill fikr bildirdi.

Uchrashuv yakunida davlat rahbarlari qator qo'shma "Yo'l xarita"larini tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali ro'yobga chiqarish mexanizmlarini yaratish bo'yicha yakuniy xulosaga keldi.

Albatta, muzokaralardan so'ng ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qancha hujjatlar imzolandi. Bularning barchasi ikki mamlakat o'rtasida hamkorlik aloqalari do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qatar tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlarning qamrovi va mazmuni ikki davlat yetakchilarining kuchli siyosiy irodasini, qolaversa, o'zaro hamkorlikni yanada yuqori, strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga qat'iy intilishini yaqqol namoyon etdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Qatar Davlati Ma'muriy nazorat va shaffoflik boshqarmasi o'rtasida imzolangan o'zaro anglashuv memorandumini kelgusi hamkorligimiz rivojida birday manfaatli va samarali dasturulamal hujjat bo'ldi.

BIRGALIKDAGI SA'Y-HARAKATLARIMIZ ANIQ NATIJALARGA QARATILGAN

Akmal BURXONOV, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori



Memorandumda korruptsiyaga qarshi kurashish, halollik va shaffoflikni kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga erishish borasida ilg'or amaliyot va tajriba almashishga qaratilgan muhim maqsadlar ko'zda tutilgan. Korruptsiyaga qarshi kurashish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida tajriba almashish, hamkasblarimizning salohiyati va malakasini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlar, stajirovka hamda qo'shma loyihalarni bajarish, korruptsiyaga qarshi kurashishga jalb etilgan boshqa davlat organlari bilan professional aloqa o'rnatish va o'zaro hamkorlik qilishga ko'maklashish shular jumlasidandir.

Tashrif doirasida Qatarning korruptsiyaga qarshi kurashish mas'ul boshqa idoralari — Davlat audit byurosi, Qonun ustuvorligi va korruptsiyaga qarshi kurashish markazi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Bu borada Qonun ustuvorligi va korruptsiyaga qarshi kurashish markazi va Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida dastlabki qadamlar tashlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, shu yil avgust oyida agentligimizda markazning Vasiylar kengashi raisi, BMTning korruptsiyaning oldini

QATAR BILAN TURLI SOHALARDA BOSHLAYOTGAN BIRGALIKDAGI SA'Y-HARAKATLARIMIZNING BARCHASI SHU KABI ANIQ NATIJALARGA QARATILGAN VA BU YAQIN ISTIQBOLDA MAMLAKATIMIZ RIVOJI VA XALQIMIZ HAYOTIDA O'Z SAMARASINI BERISHIGA ISHONAMIZ.

olish bo'yicha maxsus advokat Ali bin Al-Marray rahbarligidagi delegatsiyasi bilan uchrashib, o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan fikr almashgan edik. Endi amaliy sa'y-harakatlarni yanada ishonch bilan boshlash uchun qulay fursat va katta imkoniyatga ega bo'lib turibmiz.

Shu bois, ushbu kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida yaqinda agentligimiz delegatsiyasining Qatariga tashrifi rejalashtirilmoqda. Bo'lajak tashrif doirasida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab olishni maqsad qilganmiz.

Tashrifning yana bir ahamiyatga molik voqeasi "Korruptsiyaga qarshi kurash sohasida yutuqlari uchun" xalqaro mukofotining bu yilgi taqdirlash marosimini O'zbekistonda o'tkazishga kelishib olingani bo'ldi.

Mazkur mukofot 2015-yilda Qatar hukumati hamda BMT shafeligida Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy tomonidan ta'sis etilgan. Xalqaro mukofot korruptsiyaga qarshi kurash sohasiga o'zini bag'ishlagan hamda mazkur yo'nalishda ilg'or yangiliklarni joriy etgan shaxslar va tashkilotlarga beriladi.

Bunday muhim tadbirning mamlakatimizda o'tkazilishi O'zbekiston yetakchi xorijiy va xalqaro ekspertlar, jamoatchilik faollari uchun o'zaro muloqot maydoniga aylinishi, dunyo hamjamiyatining korruptsiyaga qarshi kurashishdagi sa'y-harakatlarini yanada birlashtirish va kuchaytirishga faol hissa qo'shishi uchun katta zamin yaratadi. Qatar bilan turli sohalarida boshlayotgan birgalikdagi sa'y-harakatlarimizning barchasi shu kabi aniq natijalarga qaratilgan va bu yaqin istiqbolda mamlakatimiz rivoji va xalqimiz hayotida o'z samarasini berishiga ishonamiz.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

BIR SHIKOYAT IZIDAN

Tahririyatimizga Shahrisabz tumani "Bog'ishamol" mahalla fuqarolar yig'ini Uch uyli qishlog'ida yashovchi "Ko'paysinov Jasur Abdurazzoqov" fermer xo'jaligi raisi Abdurazzoq Sharopov ariza bilan murojaat qildi. Uning ma'lum qilishicha, bundan besh yil oldin ushbu mahallada faoliyat olib borayotgan bir guruh fermerlarga sabzavotchilikni rivojlantirish maqsadida Shahrisabz tumanining ayrim mutasaddilari tomonidan turli va' dalar berilib, kartoshka ekish uchun kredit rasmiylashtirilgan. Ammo na ajratilgan kreditdan darak bo'lgan, na urug'lik kartoshkadan. Lekin bugun bank har bir fermer xo'jaligidan kredit va uning shu paytgacha hisoblangan foizini talab qilmoqda. Biz ushbu masalani o'rganish maqsadida murojaatda ko'rsatilgan manzilda bo'ldik.



66 DARDIMIZNI KIMGA AYTISHGA HAM HAYRONMIZ. QAYGA BORSAK, O'ZING IMZO CHEKIB, MUHR BOSGANSAN, KREDIT HISOB RAQAMINGA KIRIM BO'LGAN, DEYISHDAN NARIGA O'TMAYAPTI. ULAR ASL HOLAT QANDAY BO'LGANINI BILISHNI XOHLAMAYDI.

FERMERLARNI

Yoxud havoga uchgan kreditlar jabrini tortayotganlar haqida



zilmagan 2 donadan oq qog'ozga imzo qo'ydirib, muhr bostirib olinadi. O'sha kuni Shahrisabzda bo'lmagan fermer xo'jaliklari raislarining o'g'li, qizi yoki keliniga imzo va muhr qo'ydiriladi. Yig'ilishga kelmagan fermerlarning esa uylariga borib kredit hujjatlari rasmiylashtiriladi.

Oradan bir oy, ikki oy, uch oy o'tsa-da, na kartoshka urug'idan, na ajratilgan yerdan darak bo'ladi. Bezovtalangan fermerlar bir necha bor tuman hokimligiga murojaat qiladi. Lekin erta-indin, degan so'zdan boshqa jo'yali javob olo olmaydi. Ma'lum bir muddat o'tgach, o'sha vaqtda "O'zmilliybank" ATB Shahrisabz filiali tomonidan ushbu hududdagi fermerlarga 11 250 000 (o'n bir million ikki yuz ellik ming) so'mdan kredit mavjudligi va uni qaytarish to'g'risida xabarnomalar kela boshlaydi. Kreditning biror so'mini ko'rmagan fermerlar bezovtaligi shundan so'ng yana kuchayadi. Va bu holat hozirgacha davom etib kelmog'ida.

— Bizga o'sha paytda kredit shartnomasi yoki ta'minotchi bilan tuzilgan shartnomadan birorta nusxa berishmadi, — deydi Abdurazzoq Sharopov. — Lekin mening fermer xo'jaligimga berilishi kerak bo'lgan 10 687 500 (o'n million olti yuz sakson yetti ming besh yuz) so'm, ba'zilarga bir oz kam, bir oz ko'p mablag' 2018-yil may oyida ta'minotchi "Imkon Agro" MCHJ hisobraqamiga o'tkazib berilgan. Bu holatni eshitgach, shartnomalarni bankdan talab qilib oldik. Hozir har birimizga Majburiy ijro byurosining Shahrisabz tuman bo'limi tomonidan kredit yuzasidan qarzdorlik to'g'risida xabarnomalar kelmoqda.

Dardimizni kimga aytishga ham hayronmiz. Qayga borsak, o'zing imzo chekib, muhr bosgansan, kredit hisob raqamingga kirim bo'lgan, deyishdandan nariga o'tmayapti. Ular asl holat qanday bo'lganini bilishni xohlamaydi. Bizni bir oz ajablantirgani, nega o'sha vaqtda tumanning hech bir mutasaddisi ta'minotchi haqida so'rab, surishtirmadi.



Keyin bilsak, bu ta'minotchi boshqa joylarda ham shu holatni takrorlab, jinoiy javobgarlikka tortilibdi. Lekin jabrini bugun biz tortayapmiz. O'sha vaqtda bizga kartoshkachilikni targ'ibot qilganlar esa bugun sukutda. Misol uchun, biror bankdan kredit olish istagida murojaat qilib ko'ring-chi, qo'lingizga birdan shartnomani tutqazishmikan? Yo'q, obdon surishtiradi, kerakli hujjatlarni talab qilib, barchasi to'g'ri kelsagina beradi. Afsuski, negadir o'sha kunlarda bu rasmiyatchilik unutilgan.

Fermerning ta'kidlashicha, ajratilgan kredit qaytarilmagach, 2019-yil 11-martda da'vogarlar O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi va "O'zmilliybank" ATB Shahrisabz filiali manfaatini ko'zlab javobgar "Ko'paysinov Jasur Abdurazzoqov" fermer xo'jaligidan 12 million 822 ming 500 so'm kredit va kredit foizi qarzdorligini undirish to'g'risidagi da'vo arizasi yuzasidan Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudi qabul qilgan 2019-yil 17-apreldagi 4-1802-19/223-sonli hal qiluv qaroriga asosan, ijro varaqasi chiqarilgan. Boshqa

fermer xo'jaliklari ham bundan mustasno bo'lmagan.

Shu holat sabab biror marta ko'rmagan ta'minotchini fermerlar sudga beshiga majbur bo'lgan. Jumladan, ularning da'vosiga ko'ra, Chust tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan 2019-yil 16-mayda 4-1603-1902/969-sonli hal qiluv qarori chiqarilib, Shahrisabz tuman fermer, dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalari Kengashining "Ko'paysinov Jasur Abdurazzoqov" fermer xo'jaligi manfaatini ko'zlab kiritgan da'vo arizasi qanoatlanirilib va javobgar "Imkon Agro" MCHJ hisobidan 10 million 687 ming 500 so'm asosiy qarz, 192 ming 375 so'm penya, jami 10 million 879 ming 875 so'm undirilishi to'g'risida qaror chiqarilgan. Lekin sud hukmi ijro etilmasdan qolgan.

Oradan bir oz vaqt o'tib, "Imkon Agro" MCHJga qarshi bir guruh fermerlar tomonidan Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga da'vo arizasi kiritiladi. Natijada 2020-yil 3-dekabrda Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi apellyatsiya instansiyasining "Imkon Agro" MCHJ mas'ullaridan fermer xo'jaliklari

manfaatiga pul mablag'larini undirish to'g'risida 468/20-sonli ajrimi chiqarilgan.

Shundan so'ng Majburiy ijro byuro-si Shahrisabz tuman bo'limi boshlig'iga "O'zmilliybank" AJ Shahrisabz filiali boshqaruvchisi S.Boynazarov tomonidan 2020-yil 21-dekabrda 04/999-sonli qo'yidagi mazmunda xat chiqarilgan: "O'zmilliybank" AJ Shahrisabz filiali sizdan, Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudining 2020-yil 3-noyabr kunidagi ajrimiga asosan javobgar fermer xo'jaliklarining rahbarlari mol-mulki hisobidan "O'zmilliybank" AJ foydasiga kredit qarzdorligini undirish to'g'risidagi ijro hujjatlarini 2020-yil 3-dekabr kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi apellyatsiya instansiyasining 468/20-sonli ajrimini inobatga olib, mazkur ijro hujjatini ijro qilmasdan qaytarishingizni so'raymiz."

Shundan so'ng fermerlarni bir oz muddat hech kim bezovta qilmaydi. Ammo bu holat ko'pgacha cho'zilmaydi. Joriy yil boshiga kelib, yana Savdo-sanoat palatasi Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi "O'zmilliybank" AJ manfaatini uchin da'vo arizasi kiritgani bois, Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan 2023-yil 20-fevral kuni 4-1802-2301/84-sonli hal qiluv qaroriga ko'ra, javobgar "Ko'paysinov Jasur Abdurazzoqov" fermer xo'jaligi hisobidan 9 million 662 ming 241 so'm muddati o'tgan kredit foizini undirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Shu jumladan, boshqa fermer xo'jaliklarida ham shu holat takrorlanadi. Bugun Majburiy ijro byurosining Shahrisabz tuman bo'limi tomonidan ushbu qarzdorliklarni undirishga qaratilgan amaliy ishlar boshlangan.

Shahrisabz tuman hokimligi mutasaddilari bilan ushbu holat yuzasidan suhbatlasharkanmiz, ular o'sha davrda bu joyda ishlashmaganini, voqeadan xabar-dor emasliklarini aytishdi. "O'zmilliybank" AJ Shahrisabz bank xizmatlari markazi mutaxassislari esa kredit hujjatlari rasmiylashtirishda qonun talablari buzilmaganini, fermerlar o'zlari rozlik bildirib, kredit shart-

nomalariga imzo qo'yganini ta'kidlashmoqda. Surishtirularimiz davomida bu holat bo'yicha ayni paytda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ham o'rganish olib borilayotganini ma'lum qilishdi. Demak, balki tez orada bu sarsongarchilikka asl sababchi bo'lgan aybdorlar aniqlanar.

Darvoqe, Shahrisabz tuman hokimining 2019-yil 22-yanvardagi H-107/01-sonli qaroriga asosan, yuqorida aytilgan hududdagi fermer xo'jaliklari yerlari tuman xazirasiga qaytarilib, yiriklashtirish ishlari olib borilgan. Ayni paytda faoliyatini yakunlagan barcha fermerlar faqat qarzdorligi sabab bugun xo'jaliklari tugatilmagan turibdi.

Biz maqolada kimnidir bu holatga aybli, deyishdan yiroqimiz. Lekin kishini o'ylantiradigan jihatlari ko'p. Ya'ni shu paytda nega fermerlardan hech bir kishi kredit kerakmi, yo'qmi deya, roziligini so'ramadi, asl holat ochiq-olib, tushuntirilmadi? Yoxud ta'minotchi aslida kim, u qanday faoliyat olib boradi, deya surishtirilmasdan, fermerlar bilan kartoshka urug' yetkazuvchi tadbirkor uchrashtirilib, muloqoti tashkil etilmagan? Yana bir gap. Kredit shartnomasi 2018-yil 7-mayda tuzilgan. Endi mantiqan o'ylab qaraydigan bo'lsak, bu vaqtda kartoshka ekib bo'lmagani, ayniqsa, janub viloyatida barchaga kundek ravshan, shekilli.

Qiziq tomoni, fermerlarning aytishicha, ta'minotchi bilan tuziladigan shartnomani ham bank xodimlari ularga imzolatgan. Aslida, bu huquq ularda bormikan? Tinchgina o'z faoliyatini olib borayotgan fermerlar halovatini buzish kimga kerak bo'ldi? Bugun biror so'midan ham manfaat ko'rmagan, ammo kimdir ish haqidani, kimdir pensiyasidan, yana birov mol-mulkini sotib kredit foizlarini to'layotgan fuqarolarning holatini bir tasavvur qilib ko'ring...

Asl haqiqat qaror topadi, degan umiddamiz.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGIHA YONDASHUVLAR

Klaster:

Ayni vaqtda qishloq xo'jaligida qizg'in mavsum — paxta hosilini yig'ib olish davom etmoqda. Albatta, paxta yetishtirish va terish mashaqqatli ish. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, sohaga kirib kelayotgan yangiliklar va yaratilgan klaster tizimi bu qiyinchiliklarni yengillatib, fermerlarni qiynayotgan muammolarga yechim bo'lmoqda. Yerga chigit qadashdan boshlab agrotexnik tadbirlargacha, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etishdan tortib transport, yoqilg'i, ish haqi, zarur o'g'itlar bilan ta'minlashgacha ishlarga bosh-qosh bo'layotgan paxta-to'qimachilik klasterlari bugun fermerlarning yaqin ko'makchisiga aylandi.

Navbahorlik fermer Ixtiyor Ro'ziyev ham klaster bilan hamkorlikda samarali faoliyat yuritib kelmog'ida. Joriy yilda 36 gektar yerga chigit qadagan fermer 50 sentnerdan hosil olishni rejalashtirgan.

— Fermerlikni boshlaganimga 10 yil bo'lyapti. Xo'jalim yeri 72 gektar. Shundan 36 gektarida paxta, qolgan qismida g'alla yetishtiramiz. Faoliyatimizning

dashtlabki yillarida paxtadan 25-28 sentner hosil olgan bo'lsak, hozir 50 sentnergacha yetmoqda. Ilgari barcha agrotadbirlarni o'tkazish, texnika va o'g'it yetkazish, hosilni yig'ib olish fermer zimmasida edi. Endi paxta-to'qimachilik klasterlari bilan hamkorlik bizga qo'l kelmoqda. Bu fermerlar uchun katta imkoniyat va qulaylik yaratadi. Muhimi, barcha ishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yil-



MAHSULDORLIK HAM, DAROMAD HAM KO'PAYDI



gan, — deydi Ixtiyor Ro'ziyev.

Navbahor tumani-da joriy yilda 185 ta fermer xo'jaligida 6600 gektarga chigit ekilib, klasterlar bilan 24 664 tonna paxta xomashyosini sotish bo'yicha fyuchers shartnomalar tuzilgan. Agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ta'minlangani natijasida o'r-tacha 40 sentnerdan paxta hosili olinmoqda. Eng asosiysi, fermerlar sifatli urug'lik chigit, yoqilg'i-moylash materiallari hamda texnika bilan bog'liq masalalar qisqa fursatlarda paxta-to'qimachilik klasteri bilan hamkorlikda hal etilayotgani natijasida ko'proq vaqt va e'tiborni yerga, hosildorlikni oshirishga qaratayotir.

Yig'im-terim ishlariga paxta tayyor-garlik ko'rish maqsadida tumanda "Navbahor tekstil" paxta-to'qimachilik klasteri tomonidan 3 ta paxta qabul qilish maskani mavsumga shay holatga keltirilib, terim uchun shartnoma asosida 117 ta otryad shakllantirildi. Terimchilar uchun yetarli shart-sharoit yaratilgan.

— Klasterimiz 2018-yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda. Navbahorlik fermerlar bilan shartnoma imzolaganimizdan so'ng ishimizni ularning iqtisodiy ahvoli va imkoniyatlarini o'rganishdan boshladik. Aniqlangan muammolar, ya'ni hosildorlikni oshirish uchun yetishmayotgan texnika va boshqa vositalar bo'yicha tahlillar qilinib, aniq vazifalar belgilab olindi. Fermerlarni qiynayotgan masalalar bosqichma-bosqich hal etilgandan so'ng hosildorlikni ham oshirib borishga erishdik. Shuningdek, tumanda aholi bandligini ta'minlashga e'tibor qaratyapmiz. Chorvachilik va asalarichilik xo'jaliklari tashkil etib, ishsiz fuqarolarni jalb etyapmiz. Asosiy maqsadimiz xalqparvar klasterga aylantirish, — deydi "Navbahor klaster" paxta-to'qimachilik klasteri rahbari Ashraf Shernazarov.

Tahillarga ko'ra, 2019-yilda paxta hosilining 73 foizi aynan paxta-to'qimachilik



klasterlari hissasiga to'g'ri kelgan. Ularda an'anaviy ekin yerlariga nisbatan o'r-tacha 4,1 sentner yuqori hosil olingan. Jumladan, 13 ta klasterda hosildorlik 2018-yildagiga qaraganda 1,5 barobar, 4 ta klasterda 2 barobar o'sgan. Ushbu tizim asosida yur-timizning 40 tumanida paxta yetishtirish borasida oxirgi o'n yildagi eng yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Bundan klaster tizimi qanchalik samarali ekanini anglash mumkin.

Navoiy viloyatida ham shunday ijobiy natijalarga erishildi. Masalan, 2022-yilda 2019-yildagiga nisbatan 25 ming tonna ziyod paxta yetishtirilib, hosildorlik 8 sentnerga oshirildi.

Karmana tumanidagi "Baxt tekstil" paxta-to'qimachilik klasteri tomonidan o'tgan yili 12 ming tonna xirmon yig'ilib, hosildorlik avvalgi yillardagiga qaraganda 7 sentnerga oshirildi.

Ushbu korxonaga bilan samarali hamkorlik qilayotgan fermerlardan biri Muhiiddin Xudoyqulov joriy yilda 32 gektarda paxtaning "S 01" navini parvarishladi. Ayni kunlarda terim jarayoni boshlab yuborgan fer-

mer gektaridan 45 sentnerdan hosil olishni maqsad qilgan.

— Hozir korxonamiz 373 ta fermer xo'jaligi bilan 44 100 tonna paxta hosili uchun fyuchers shartnomasi tuzgan. Fermerlarga har tomonlama ko'mak berib kelmog'damiz. Korxonamiz kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mahsulot ishlab chiqarishda, asosan, o'zimizning mahalliy xomashyodan foydalanyapmiz. Albatta, bunda fermer xo'jaliklari bilan hamkorlik har tomonlama manfaatli. Bundan fermer ham, klaster korxonasi ham foyda ko'radi, — deydi "Baxt tekstil" paxta-to'qimachilik klasteri direktori o'rinbosari Umidjon Norov.

Darhaqiqat, paxta-to'qimachilik klasterlari bugun har bir tumanda drayvga aylandi. Shu bois, joriy yilda ham barcha imkoniyatlar ishga solingan holda, hududlarning eksport geografiasini kengaytirish, to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirish maqsad qilingan.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



TEXNIKA TARAQQIYOTI

KELAJAK TRANSPORTI

unga xizmat ko'rsatish uchun mutaxassis yetarlimi?

Elektromobillar bozori rivojlanishi bilan sohada yangi davr boshlandi. Yurtimiz ko'chalarida elektromobillar ko'payib borayotgani ham buning tasdig'i. Bir necha yil oldin elektromobilga negadir ishonchsizlik bilan qarardik, bugunga kelib havas bilan qarash boshlandi.



Javohir TOSHOV,
Toshkent davlat texnika universiteti elektr energetikasi fakulteti dekani, texnika fanlari doktori, professor

Birinci elektromobil 1841-yilda, hatto ichki yonuv dvigateli yaratilishidan oldin ixtiro qilingan. U elektr motori bilan jihozlangan oddiy arava edi. 1960-yillar oxiriga kelib, Buyuk Britaniyada oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish uchun elektromobil juda keng qo'llana boshladi. Sababi, xarajati ichki yonuv dvigateligiga ega yoki shunga o'xshash avtomobilni qo'llash narxidan 10-20 foiz kam edi.

Ayni paytgacha kelib, elektromobil tjamkor, ekologik toza va qulayligi bilan kelajak transportiga aylanishi aniq bo'lib bormoqda. 2060-yilga borib jahonda elektromobil ulushi umumiy avtoparkning 65 foizigacha o'sishi kutilmoqda. Prognozlariga ko'ra, 2025-yilda 2016-yildagiga solishtirganda dunyoda elektromobil savdosi qariyb olti barobar oshib, 14,2 millionga yetadi. Akkumulyatorlar quvvati 26 gigavatt-soatdan 215 gigavatt-soatgacha o'sadi. Bu esa dunyo bozorida elektr batareyalar uchun nikel defitsitiga olib kelishi mumkin.

2022-yilda elektromobil global savdosi deyarli 70 foiz o'sdi, bozordagi ulushi birinchi marta taxminan 10 foizni tashkil etdi. Yevropada sotilgan to'liq elektr avtomobil ulushi 11 foizga, Xitoyda esa 19 foizga yetdi. Bu yil davomida Xitoyda ishlab chiqarish ko'rsatkichi 96,9 foiz, sotish esa 93,4 foiz oshdi. 2022-yil yakuniga ko'ra, ushbu mamlakatda elektromobil uchun 5,21 million quvvatlash stansiyasi mavjud bo'lgan (ulardan 2,59 milliondan ortig'i mazkur yilda qurilgan). Elektromobil sotish bo'yicha jahon yetakchisi AQSHning Tesla kompaniyasi bo'lib qolmoqda. Undan keyingi o'rinlar BYD, SAIC va Volkswagen kompaniyalariga tegishli.

O'zbekistonda holat qanday?

Mamlakatimizda "yashil" texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga, jumladan, transport sohasiga bosqichma-bosqich joriy etish natijasida ushbu infratuzilma yanada rivojlanmoqda. Bu ijobiy va global tendensiyadir. Prezidentimizning 2022-yil 19-dekabrda "Elek-



trabildir. Chunki global isish oqibatlarini kundan-kunga yaqqolroq sezib boraymiz. Iqlimning keskin o'zgarishi, ekologik muammolar, suv tanqisligi, yirik shaharlardagi havo sifati buzilishi shular jumlasidan. Buning oldini olish uchun karbonat angidrid gazining atmosferaga chiqishini keskin kamaytirish kerak. Bu esa ichki yonuv dvigatellaridan foydalanishni keskin qisqartirishni, qatnov vositasi sifatida elektromobillardan foydalanishni taqozo qilmoqda. Qolaversa, elektromobillar boshqarilishi oson, ekologik toza, motor qizitishni talab etmaydigan, svetofor yoki tirbandliklarda energiyani behuda isrof qilmaydigan, tormozlanishda energiyani akkumulyatorga qaytarib beradigan mukammal vositadir.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot tufayli hayotimizga yangi xususiyat va afzalliklarga ega elektrotexnika uskunalar keng kirib kelayotgani, elektromobillar (umuman transportga yuqori talab, shuningdek, mis va uning asosida yaratilayotgan elektrotexnik mahsulotlar soni va hajmi keskin oshayotgani mis ishlab chiqarish sur'atini oshirishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda mis sanoati klasteriga asos solingan bu borada imkoniyatimizni oshiradi. So'nggi 5 yilda yurtimizda mis ishlab chiqarish hajmi qariyb 1,5 barobar oshdi. Xalqaro ekspertlar fikricha, elektrda harakatlanadigan transport vositalari ishlab chiqarishni ko'paytirish, elektrotexnika va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish tufayli 2030-yilga borib, misga global talab 40 foiz o'sishi kutilmoqda. Misdan olingan daromad hozir 2,5 milliard dollarini tashkil qilmoqda. Keyingi 5 yilda mis ishlab chiqarish hajmi 400 ming tonnaga ko'payishi bilan daromad 7-8 milliard dollarga yetishi mumkin.

Bundan tashqari, yurtimizda elektromobil, butlovchi qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsa, mis xomashyo sifatida emas, balki tayyor mahsulot sifatida qo'shimcha foyda keltiradi.

Sohada kadrlar yetarlimi?

Xitoyning BYD kompaniyasi mamlakatdan tashqaridagi ilk hamkorlik loyihasi bo'ldi. Demak, yurtimizda elektromobillarga xizmat ko'rsatuvchi muhandislik-servis markazlari tashkil etilishi tabiiy. Elektromobil ishlab chiqarish korxonalarida hamda servis markazlarida ishlaydigan xodimlar yuqori malakaga ega bo'lishi zarur, albatta. Bu soha yurtimiz ta'lim tizimi uchun yangi yo'nalishligi tufayli yangi mutaxassisliklar tashkil etishni taqozo qilmoqda.

Bugun Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti va Turin politexnika universitetining Toshkent shahridagi filialida avtomobilsozlik bo'yicha oliy malakali kadrlar tayyorlanadi. Jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti energetika sohasiga tegishli ta'lim klassifikatorida mavjud barcha ta'lim yo'nalishlarida talabalar o'qitib kelinmoqda. Universitetning elektr va issiqlik energetikasi fakultetida 5 mingdan ortiq yigit-qiz tahsil olmoqda. Ularga yuqori malakali 200 dan ziyod professor-o'qituvchi ta'lim berayotir. Shunday bo'lsa-da, elektr transport vositalariga xizmat ko'rsatish faqat ayrim ta'lim yo'nalishlariga faqatgina kiritilgan, xolos.

Kelajakda elektromobil va gibridd avtomobillarga xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishda yetuk muhandis va mutaxassislarni tayyorlash zarurati mavjud. Prezidentimizning 2022-yil 19-dekabrda "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni bajarish, elektromobil va elektr transport vositalarini ishlab chiqarish, sozlash, ekspluatatsiya qilish va xizmat ko'rsatish, hozirgi va kelgusidagi muhim topshiriqlarni bajarish uchun elektromobil elektr yurimlari va elektr texnik vositalari ta'lim yo'nalishi hamda elektromobil elektr mexanik tizimlari va ularni boshqarish magistratura mutaxassisligini tashkil etish orqali sohaga malakali mutaxassislar tayyorlash mumkin.

Shu kabi chora-tadbirlar natijasida aholining yashil texnologiyalardan samarali foydalanishi, yangi energiya manbalarida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarish va sotish, yangi ish joylari hamda ekologik toza energetik qurilmalarning hayot tarzimizga singib borishiga keng yo'l ochiladi.

NUQTAYI NAZAR

Mamlakatimizda musiqa madaniyatini sifatli ta'lim mezonlari asosida rivojlantirish uchun kasbiy yetuk o'qituvchilar tayyorlashga ehtiyoj katta. Chunki musiqa o'qituvchilari umumiy musiqa san'ati bo'yicha kasbiy mahorat bilan birga, fanni o'qitishga doir kasbiy ko'nikmalarni ham egallagan bo'lishi kerak.



MUSIQIY DID TARBIYASI NECHOG'LIQ ZARUR?

Aflotuning bu boradagi fikrini unutilib bo'lmaydi

Anvar LUTFULLAYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori



Bugun maktabgacha va maktab ta'limi, bolalar musiqa va san'at ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida musiqa fani keng o'qitilmoqda. Bu fanni o'qitish bo'yicha muayyan muammolarni o'rganib, yechimini topish taqozo etiladi. Jumladan, ta'lim muassasalarida ushbu fan bo'yicha variativ o'quv dasturlari yaratish, ular asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish muammosi mavjud. Chunki variativ o'quv dasturlari musiqa fanining nazariy asoslari, ijrochilik metodikasi va individual yondashuv vositalari ko'lamini kengaytiradi.

Bu jarayonda professional musiqa o'qituvchilariga ehtiyoj ortib borayotgani sababli ularni tayyorlashda musiqa san'ati asoslari, cholg'u, ashula, ansambl va orkestr ijrochiligi bo'yicha kasbiy bilim hamda ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda fan bo'yicha bo'lg'usi muallimlarni biror cholg'u va xonandalikning muayyan yo'nalishi bo'yicha individual metodika bilan qurollantirish ham katta o'rin tutadi. Bularning barchasi musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini muntazam takomillashtirish va o'qitishning turli shakllardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Yangi o'quv dasturlari va adabiyotlarni tayyorlashda ikki muammoni hal etish zarur: birinchisi, musiqa bo'yicha o'quv adabiyotlarini tayyorlashning milliy tajribasidan oqilona foydalanish; ikkinchisi, bu borada jahon musiqa

masalada nazariya, ijrochilik va metodika masalalari uyg'un xususiyatga ega. Bular har o'quv yili boshida musiqa o'quv fani dasturlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda ularga beriladigan kasbiy bilim va ko'nikma bo'yicha mavjud muammolarni hal etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada bo'lajak mutaxassislarni milliy va jahon musiqa san'atining noyob durdonalari ijrochiligi, bolalar musiqa asarlari metodikasi bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, o'qitish jarayonida milliy musiqa merosidan foydalanish, bolalar musiqa san'atini o'qitish va jahon xalqlari musiqa san'atidan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish bugungi muhim masalalar sirasidan. Shu sababli, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida mazkur muammolar bo'yicha amaliy va metodik ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb.

Oliy musiqa ta'limi vositasida musiqa o'qituvchilarini tayyorlashning



san'ati an'alarini hisobga olish. Shu jihatdan yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlashda milliy tajribadan foydalanish metodikasini ishlab chiqish muhim masalalardan. Bunda jahon mamlakatlari musiqa san'ati an'alarining eng yaxshi jihatlardan foydalanish metodikasi bo'yicha ham muammolar mavjud. Ayniqsa, jahon musiqa san'atining eng noyob durdonalarini o'rganishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Mazkur muammolarning hal etilishida kasbiy yetuk va mahoratli pedagoglarning o'ri muhim.

O'quv dasturlarida nazariy bilim, ijrochilik mahorati va musiqa ta'limi metodikasi asoslarini o'zida mujassam etgan omillarga tayanish zarur. Chunki nazariy bilimga ega musiqa muallimlari o'quvchi va talabalar uchun ushbu fan asoslari bo'yicha bilimni kutilgan darajaga olib chiqadi. Nazariy bilim ijrochilik mahorati asosidir. Bu borada cholg'u va ashula ijrochiligi asoslarini o'zlashtirishda nazariy bilim tayanch vazifasini o'taydi. Unga asosan, o'zlashtirilgan ijrochilik mahorati musiqa o'qituvchilariga o'ziga xos metodikaga asoslangan ta'limni o'qitish imkonini beradi. Shu jihatdan bu

yangi shakllaridan ham foydalanish kerak. Bu o'rinda amaliy samara berayotgan masofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim va individual ta'lim kabi o'qitishning yangi shakllarini e'latib o'tish joiz. Misol uchun, bunday mashg'ulotlar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan, bu mashg'ulotlardan hududlardagi oliy pedagogik ta'lim muassasalarining musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarini ham bahramand bo'ladi. Chunki poytaxtimiz va markaziy shaharlardagi pedagogik OTMlarda kasbining ustasi bo'lgan mutaxassislar faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan ustozlarga birlashtirish orqali talabalarni mustaqil ta'lim shaklida professional musiqa o'qituvchilari qilib tayyorlash kutilgan samarani beradi.

Bundan tashqari, individual ta'lim shaklida ham bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini tayyorlash imkoniyati mavjud. Unga ko'ra, pedagogik OTMning musiqa ta'lim yo'nalishida individual musiqa ta'limi dasturi, o'quv adabiyotlari va metodik dasturi ishlab chiqiladi. Ularni o'zlashtirish bilan bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi individual shug'ullanadi. Buning natijasida talabalarda pedagogik

mahorat kuchayadi. Eslatib o'tish joizki, masofaviy, mustaqil va individual ta'lim shakllarining o'quv manbalari elektron nusxada tayyorlanadi va ta'lim oluvchiga taqdim etiladi.

Diqqat qilinsa, professional musiqa o'qituvchilarini tayyorlashning turli shakllaridan foydalanish oliy musiqa pedagogik ta'lim jarayoni mazmuni, o'qitish metodikasi va kasbiy tayyorlash asoslarini yangilaydi. Bularning barchasi professional musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega.

Yondashuvimizga ko'ra, mutaxassislar takliflarini umumlashtirish hamda ular asosida yanqozon musiqa ta'limi metodikasini ishlab chiqish muhim. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning musiqa tarbiyasini amalga oshirishda ham yangi yondashuvlarga asoslanish dolzarb. Chunki internet va turli ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'quvchi-talabalar o'zining yoshi, ruhiy va estetik xususiyatlariga mos kelmaydigan musiqa asarlari namoyish qilinmoqda. Natijada ular ongida nomal'um jamiyatga itilish hissi, ruhiy tushkunlik va me'yorsiz individuallikka ishtiyiq paydo bo'lmoqda. Shu sababli jamiyatimizda musiqa tarbiyasini yangilab borish taqozo etilmoqda. Buning uchun ta'lim oluvchilarga, eng avvalo, o'quvchilarga milliy musiqamiz asoslarini to'g'ri tushuntirish va jahon musiqa san'atining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Bu ishda professional musiqa o'qituvchilarining mehnatiga tayanish kutilgan samarani beradi. Shu ma'noda, professional musiqa o'qituvchisi musiqa tarbiyasining individual yondashuv shakllaridan foydalanishi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar inklyuziv ta'limga muhtoj, ya'ni jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim bilan to'liq qamrab olish islohoti amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning musiqiy didini tarbiyalovchi professional musiqa o'qituvchilarini tayyorlash ham dolzarb bo'lib turibdi. Bu jarayonda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyati cheklangan bolalarning musiqiy didini tarbiyalash, ya'ni ularning jismoniy layoqati va qiziqishidan kelib chiqib cholg'u hamda qo'shiq ijrochiligi o'rgatish muhim. Bo'lg'usi professional o'qituvchilar kelgusida inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar yashaydigan oilalar hamda ular tarbiyalanayotgan maxsus ta'lim muassasalarida ham faoliyat yuritishi mumkin.

E'tibor berilsa, musiqiy didni tarbiyalashning yangi shakllari va inklyuziv ta'lim jarayonida asqotadigan metodikasi bo'yicha yangi avlod o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish zarurati bor. Bu borada Toshkent, Jizzax va Chirchiq davlat pedagogika universitetlari musiqa ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilari hamda mutaxassislarining hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Ulug' faylasuf Aflotuning "Davlatning qudrati qanday musiqa tinglanayotganligi bilan belgilanadi" mazmunidagi fikrini unutilib bo'lmaydi. Chunki qanday musiqa tinglanayotgani mamlakat fuqarolarining davlatga munosabatini belgilaydi. Bu masalani hal etish professional musiqa o'qituvchilarini tayyorlash va musiqiy did tarbiyasiga yangicha yondashuvlar bilan amalga oshadi.

Mamlakatimiz musiqa ta'limi va tarbiyasining yangilanish jarayonida bugungi kun talablaridan kelib chiqib, amaliy va metodik tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlarda dolzarb muammolarni aniqlash, yechimlarini topish va rivojlantirish bo'yicha takliflar majmuni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu borada musiqa san'ati va killarining mahorati, musiqa ta'limi va tarbiyasi an'alarini hamda jahon musiqa san'ati ta'limining tajribalariga uyg'un yondashish kutilgan samarani beradi.

ADIB VA JAMIYAT

Dunyo hikmatlar xazinasiga to'la ummonga o'xshaydi. Bu xazinada olis o'tmishdan, odamlar, mamlakatlar, tuzumlar tarixi va taqdiridan kelib chiqadigan va bugun uchun ham g'oyat ahamiyatli saboqlar ko'p. Gap ularni anglash, o'tmish xatolarini takrorlamaslik, buyuk ajdodlar merosidan to'g'ri va unumli foydalanishda.



Ahmadjon MELIBOYEV, "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri

Buning uchun ko'p narsa kerak emas, bugungi avlod tarixiy meros va tajribani unutmasa, milliy xotira zaiflashmasa, o'zlikka qaytish jarayoni to'xtamasa, muammolarni birgalikda hal qilish tuyg'usi susaymasa bo'ldi. Hayotning o'zi bir maqsad yo'lida birlashib harakat qilishni kun tartibiga qo'yimoqda. Davlatimiz rahbarining "Bir bo'lsak yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz", degan shiori bir mamlakat hududidan chiqib, dunyoga yo'yilib ulgurdi: "Bir bo'lsak, bu ona sayyorada tiriklikni saqlab qolamiz, birlashsak — tobora kuch olib kelayotgan iqtisodiy, tabiiy va ijtimoiy muammolarni keng ko'lamda hal qila olamiz".

Qirg'iziston poystaxti Bishkek shahrida MDH davlatlari ilmiy-ijodiy ziyolilarining an'anaviy XVI forumi b'lik bo'ldi. Adabiyot, madaniyat va san'at, teatr va kino namoyandalari bugungi murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlariga rioya qilish, ulug' adib Chingiz Aytmatov so'zlari bilan aytganda, "Insonni inson maqomida saqlab qolish" uchun o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidladi. Notoqlar bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlariga yuqori baho berdi. Forumda O'zbekiston xalq artisti Yodgor Sa'diyev va yosh haykaltarosh Bahrom Norboyevga "Hamdo'stlik yulduzlari" mukofoti topshirildi.

Insoniyat uchun yagona beshik bo'lib turgan Yer sharining taqdiri, ona zaminning ertangi kuni, kelajak nasllarning rizq-nasibasi insoniyatning shu kungi va bundan keyingi, faqat bir marta yoki bir millat manfaatlarini emas, barcha-barchani o'yab qiladigan harakatlarni, bir-birimizni tushunishimizga, umumma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizga bog'liq bo'lib turibdi. Buning bir necha asoslari bor, albatta.

Muttasil o'zgarib, shu bilan birga, murakablashib borayotgan bugungi dunyoning

Odamlarga KENG OCHSANG GAR QUCHOG'ING.

muhim xususiyati shundaki, endilikda jahonning o'ta rivojlangan, iqtisodiy jihatdan baqovvat, qo'lini qaysi tomonga uzatsa yetadigan davlati ham o'z holicha, boshqalardan uzilgan holda, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy aloqalarsiz yashay olmaydi. Chunki yangi sharoitning yangi muammolari mazmun-mohiyatiga ko'ra, keng qamrovli bo'lib, ularni faqat birgalikda, bamaslahat, har bir tomon manfaatidan kelib chiqqan holda hal qilish mumkin. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning dunyo va mintaga davlatlari bilan yaxshi qo'sh-nichilik, do'stlik, qardoshlik, manfaatli hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarish, amaliy natijalar bilan boyitishga doir siyosati uzoq-yuqin mamlakatlarda ham g'oyat xushnudlik bilan kutib olindi. Bu siyosat mamlakatimizni jahon hamjamiyatiga yangi qiyofada namoyon etmoqda. Bizga yondosh mamlakatlarda bu yo'lning ijobiy natijalari, davlatlararo muhim bitim va kelishuvlar, chegaralardagi sun'iy to'siqlarning olib tashlanishi, mamlakatimizda tashqi investorlar uchun huquqiy jihatdan kafolatlangan faoliyat muhitning yuzaga kelishi rasman e'tirof etilayotir.

Xalq'or o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonch tuyg'usini mustahkamlashda adabiyot va madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Buni birgina o'zbek-qirg'iz adabiy aloqalarida ham ko'rish mumkin. Qirg'iziston xalq yozuvchisi Ali To'qamboyev bundan yetmish besh yil avval Alisher Navoiy haqida ilmiy maqola yozdi, "Layli va Majnun" dostonini qirg'iz tiliga o'girgan tarjimonlarga bosh-qosh bo'ldi. Ustoz Mirmemir ulkan "Manas" eposining birinchi qismini zo'r mahorat bilan o'zbekchaga o'girdi. Atoqli adib Chingiz Aytmatov ushbu tarjimoni yuksak baholadi. Ellig'inch yillardan boshlab mamlakatimizda qirg'iz tilidan tarjima qilishga e'tibor kuchaydi. Bu davrda atoqli adib Tugalboy Sidiqbekovning "Zamonamiz Kishilari", "Tog' bolalari" va "Tog'lar orasida" nomli uch romani llyos Muslim va Qodir Ahmadni o'girmasida chop etildi. Shukurbek Beyshezeniyevning bolalar uchun yozgan "Balli", "Qichan" nomli ikki qissasi, Musa Jong'oziyevning "Ajoyib tog'lar" she'rlar to'plami, "Moviy Issiqko'lda" qissasi kabi o'nlab asarlar o'zbek o'quvchilari qo'lga borib yetdi.

Shundan keyingi yillarda qirg'iz adabiyotining mumtoz vakili To'qat'ulga bag'ishlangan to'plamlar, A.To'qamboyevning

"Do'stlarimga", Suyunboy Erallyevning "Tog'lar farzandim", Temirgul Umetailyevning "To'rg'ay navosi", Sooronboy Jusuyevning "Dovon" she'rlar to'plamlari, Sh.Abdiramanovning "Tanishlarim", To'lagan Qosimbekovning "Singan qilich" romani, Mar Boyjiyevning "Mening oltin baliqcham" nasriy asari, qator dramalari nashr etildi. Bolalar uchun qirg'iz xalq ertaklaridan iborat "Bir qalpoq oltin", "Sehrqar bilan bola" singari kitoblar jaji o'quvchilarga yaxshi sovg'a bo'ldi.

Qirg'iz badiiy so'z san'atining o'zbek xonadonlariga kirib kelishida ikki ulkan adabiy voqe'lik — "Manas" episi hamda ulug' yozuvchi Chingiz Aytmatov asarlarining o'rni beqiyos. "Manas" episi qisqartirilgan variant tarzida 1958-yili birinchi marta ilk bor uch jild (to'rt kitob)da nashr etilgan. Bu noyob tarixiy yodgorlikni keyinchalik o'zbek tiliga o'girishda ustoz Mirmemir, Sulton Akbariy, Tursunboy Adashboyev, Zuhridin Isomiddinovning xizmatlari katta bo'ldi. Chingiz Aytmatovning asarlarini o'zbek tiliga o'girishda Asil Rashidov, Ibrohim G'afurov, Suyun Qorayev, Abduraim Otamatov, Mahkam Mahmudov, Nurali Qobul kabi mutarjimlar beqiyos mehnat qilishdi. So'nggi yangilik — atoqli qirg'iz adibi Tugalboy Sidiqbekov qalamiga mansub "Ko'k yalov" tarixiy romanining o'zbek tiliga o'girishi (tarjimonlar Ulug'bek Abdusalomov, Hilola Abdusalomova) va "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qilinishi, iste'dodli nasir Sulton Rayev hikoyalarni o'zbek o'quvchilariga yetib borishi bo'ldi. Ayni kunda ulug' adib Chingiz Aytmatov asarlarining o'n jildligi nashrga tayyorlanmoqda.

Bir qarashda muammo yo'qday. Adabiy-madaniy aloqalar avvalgi suronli shuhratiga qaytmoqda. Kessa avlod xotirasiga marjonday muhranib qolgan Toshkent kinofestivali, Hindistonni Bobur mirzodan keyin ikkinchi marta zabt etgan (Javoharlal' Neru ta'бири) mashhur "Bahor" ansambli tiklandi. Yozuvchilar uyushmasining bugungi aloqalar ajoyib havasga arziguqlik. Badiiy tarjima borasida faxr bilan tilga olinayotgan ishlarimiz bor. Xorijiy nashriyotlarda o'zbekistonlik mualliflarning kitoblari chop etilmoqda. "Jahon adabiyoti" jurnali atrofida yirik-yirik asarlarni bevosita aslyatdian o'girishga qodir iqtidorli tarjimonlar shakllanayotir. Ammo xotirjam bo'lishga erta.

Tarjimon hechog'liq mahoratli bo'lmasin, aslyat tilni chuqur bilmasa, badiiy tarjimaga oid nazariy asoslardan boxabar bo'lmasa, talab darajasidagi natijaga erisha olmaydi.



Bu gap biror qissa yoki romanni ingliz, fransuz, koreys yoki arab tilidan o'zbek tiliga o'girayotganlarigagina emas, qirg'iz, qozoq, tojik, turkman, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon tillaridan tarjima qilayotganlarga ham taalluqli. Negaki, bu yondosh tillarni tushunish g'arb tillarini tushunishchalik murakkab bo'lmasa-da, har bir tilning faqat shu tiligagina xos bo'lgan ko'pdan ko'p so'z va atamalar borki, tarjimon ularni to'g'ri anglashi uchun ko'p mehnat qilishi kerak. Bir-ikki misol. Qirg'iz tilida yil fasllardan biri "jaz" deyiladi. Yoz tarjimon bu so'zni "yoz" deb o'girishi mumkin, xolbuki, "jaz" qirg'izchada "bahor" degani. Shu tilda "tuzox" degan so'z bor. Ko'plari uni "tuzoq" deb tushunadi, aslida "tuzox" — do'zax degani.

Bunday misollarni boshqa yondosh tillardan ham keltirish mumkin. Nima qilish kerak? Tezroq yaxshi amaliy natija beradigan tadbirlarga o'tishimiz zarur. Bugun zamonaviy dunyo ilmi ingliz tilida bo'lgani uchun bu tilni o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Xitoy, yapon, koreys tillarini ham jadal o'rganmoqdamiz. Fikirimcha, yoshlarimiz bu tillar qatorida qirg'iz, qozoq, tojik, turkman, qoraqalpoq tillarini ham bilsalar, lug'atshunos olimlarimiz, masalan, "O'zbekcha — qozoqcha", "Qozoqcha — o'zbekcha", "O'zbekcha — qirg'izcha", "Qirg'izcha — o'zbekcha" kabi ixcham so'zliklar ustida ish boshlasalar bag'oyat ma'qul ish bo'lar edi. Bu taklifning yana bir zaruriyati shundaki, yuqorida keltirilgan tillardan o'zbek tiliga o'girgan asarlarni sanab sanog'iga yetish qiyin. Birgina "Manas" episi bir necha marta o'zbekchaga o'girilgan, ammo "Alpomish", "Go'ro'gli" kabi dostonlarimizning boshqa qardosh tillarga tarjima qilangani haqida bunday deya olmaymiz. Bundan anglashiladigan xulosa shuki, adabiy-madaniy aloqalar ikki va ko'p tomonlama bo'lgandagina yaxshi natija beradi.

Badiiy adabiyot xazinasini o'zining durdona asarlari bilan boyitgan Chingiz Aytmatovning ijodi bilan tanish bo'lmasa, ammo kitobxonni topish qiyin bo'lsa kerak. Adib asarlari dunyoning barcha qit'alarida sevib o'qiladi. Har bir millat vakili ularni mutolaa qilgan ekan, o'zi, millati va vatani uchun daxldor ko'p narsalarga duch keladi. Asar qahramonlari u bilan zamondosh, taqdiridoshday ayrimlarini hayotda ko'rganday, muloqotda bo'lganday tuyuladi.

Aytmatov xalqimiz tarixi va madaniyatini, boy ma'naviy merosimizni yaxshi bilib, chuqur his etar, buyuk allomalarimiz bilan o'zbek xalqi kabi faxrlanardi. Uning qissa va romanlari, publitsistik maqolalari, dolzarb ma'ruzalarida xalqimizning shonli tarixi, ajdodlarimizning olamshumul kashfiyotlari, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi moziyga shohid shaharlarni bunyod etgan arxitektorlar bilan faxrlanish, Orol ko'lining taqdiriga kuyinish, o'zi oq, ammo ishi, mashaqqati qora, xarid narxi past paxta haqida mushohada yuritish ko'plab uchraydi.

"Jamila'dagi Duniyor bizga yot emas. Turmush bu mushdek bolani ne ko'yilarga bosh olmagun, tirikchilik dardida u qayerlargacha bosh urmagun. Duniyor ko'p vaqt Chaqmoq dashtida qo'y boqib yurib, voyaga yetgach, jazirama cho'llarda kanal qazigan, yangi tuzilgan xo'jaliklarda paxta ekib, ekin sug'rib, oxiri Ohangaron shaxtalarida ishlab, o'sha yerdan armiyaga ketgan edi.

"Cho'qqida qolgan ovchining ohizori'da Chingiz Aytmatov Sohibqiron Amir Temurning Sheroz shahrida hofiz Sheroziy bilan bo'lgan uchrashuvini yodga olib, ulug' hukmdorning qizib yurgan so'zlarini keltiradi: "O'z shoirini izlab yurgan podshoning qo'l ostidagi xalq baxtli bo'ladi. Biroq o'z hukmdorini izlab yurgan shoirning xalqi baxtsizdir".

Taniqli qirg'iz dramaturgi Mar Boyjiyev bundan bir necha yil avval o'zbekistonlik ziyolilar bilan shubhada: "O'zbekistonda bo'layotgan ijodiy o'zgarishlarni, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosatni havas bilan kuzatib turibmiz. Ulug' millatdoshimiz Chingiz Aytmatovga bo'lgan hurmat-ehrtidromdan mamnunmiz. Qardosh jumhuriyatlarda o'tkazilayotgan adabiy-madaniy tadbirlar xalqlar o'rtasidagi do'stlikni oltin ko'priikka aylantiradi. Ildizlari bir elmiz, urf-odatlarimiz, maqsad-mudalalarimiz bir. Shunday ekan, bir-birimizdan uzoqlashmasligimiz kerak", degan edi. Bu e'tirof Chingiz Aytmatovning Toshkentda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini assambleyasining ochilishida yosh jodkorlarga qarata aytgan quydigi so'zlarini yodga so'ladi: "Bir-biringizni uzoqlashib ketmagun, chunki bir-biringizni o'qimasangiz, bordi-keldi qilmasangiz, vaqti kelib tarjimon orqali muloqot qilishingizga to'g'ri keladi. Shunday ekan, keyinchalik tuzatish qiyin bo'lgan xatoga bugun yo'l qo'yilmanglar".

To'rt kunlik safar davomida "Adabiyot, madaniyat millatni yuksak insoniy fazilatlar darajasida, millatlararo munosabatlarni baland maqomda ushlab turuvchi, mintaqalarning umumiy kelajak yo'lini yorituvchi kuchidir" degan fikr ustuvorlik qildi. Qirg'iz xalq shoiri Xo'jayekdi Qultegin yozganidek: *Odamlarga keng ochsang gar quchoq'ing, gar quchoq'ing, Ko'ngling o'sar, qutga to'lar o'chog'ing. Quchoq ochib kelgay senga quvonch, baxt, Yaxshi o'tgay bu chog'ing-u o'chog'ing. Bir-birini suyb, qirg'iz qir oshgan, Ittifoqlik qursa, ishi yurishgan; Kurashsa ham bir-birini yengay deb, Bel olishib, quchoqlashib kurashgan.* Forum doirasida Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti va "Jahon adabiyoti" jurnali o'rtasida badiiy tarjima sohasida ijobiy hamkorlik qilishga kelishib olindi.

21-OKTABR — O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

JAHON MINBARIDA JARANGLAYVER BARALLA!

So'z aytish, fikr bildirish imkoni o'z tilingda ifoda etilsa, yuragingning tubidan hapqirib, qon tomirlaringdan jo'shib otilayotgan muborak kalimalar ona tilingda bayon etilib, odamlar qalbiga faraxbaxsh tuyg'ular, masrur onlarni baxshida aylasa, bundan ortiq saodat, bundan ortiq sharaf bo'lmasa kerak.



O'zbekcha so'z, o'zbek degan nom dunyo minbarida jaranglab tursa, bundan faqat faxrlanish, g'ururlanish kerak.

Davlatimiz rahbarining BMT 78-sessiyasida o'zbek tilida ma'ruza qilgani qabllarimizni faxr-iftixorga to'ldirdi.

Yangi-yangi tashabbus va takliflarning o'zbek tilida ifoda etilgani jahon jamoatchiligining diqqat-e'tiborini yana bir bor oshirdi.

Prezidentimizning ona tilimiz ravnagi yo'lida kuyinchaklik bilan aytgan quydigi so'zlari har qanday kishining diqqatini tortadi: "...Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim". Demak, o'zbek tiliga bo'lgan munosabat bu yurtga, ona Vatanga bo'lgan munosabatdir!

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkin, bugungi kunda o'zbekcha so'zlar jahon maydoniga mardonavor kirib kelyapti. Hozirda jahon ahli "Tinchlik", "Do'stlik", "Mehr", "Muhabbat", so'zlarini yoki kurash sportidagi "Halol", "Yonbosh", "Chala" deb ifoda etiladigan o'zbekcha talaffuzlarni tarjimasiz

ham tushuna oladi. Bu esa bizga itfoxor bag'ishlaydi.

Shu o'rinda ayrim takliflarim bor. Tili-mizga hurmat va e'tibor bilan yondashish uchun avvalambor ona tilimizdagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni bilishimiz kerak. Buning uchun esa joylardagi Atamalar komissiyasi faolroq bo'lishi zarur. Yana bir gap. O'zbek tilining izohli lug'atlarini yoki o'zbekchadan boshqa tillarga o'girilgan lug'atlarini ko'paytirish va yanada boyitish maqsadga muvofiq. Tilshunos olimlarimiz, shu soha mutaxassislari bu masalaga jiddiyoq yondashadilar, degan umiddamiz.

Ona tilimiz jahon maydonlarida mardonavor jaranglayotgan ekan, istardiki, biz qadriyatogun ona tilimiz yangi O'zbekistonimizning yuzi va so'ziga aylanib qolsin.

Ashurali BOYMUROD,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetlari tahririyati" DUK
MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.
43312 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15